

**O’QITUVCHI VA O’QUVCHI O’RTASIDAGI HAMKORLIKNI  
SHAKLLANTIRISHDA OILA HAMDA JAMOATCHILIKNING O’RNI**

**Egamberdiyeva Nargiza Mo’mnovna**

*Buxoro shahar 22 – IDUM, boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Respublikamiz rahbariyati oila mustahkamlash, uning sharoitini yaxshilash, kishilarning turmush farovonligini oshirishga juda katta ahamiyat bermoqda. Oilaning mustahkamligi bolalarni har tomonlama to’g’ri tarbiyalashga imkon beradi. Oila, maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab, mahalla jamoasi o’rtasidagi aloqani yaxshilash, ota-onalarning bolalar tarbiyasi uchun javobgarligini oshirish davr talabidir.

**Kalit so’zlar:** oila, bola tarbiyasi, turmush farovonligi, mahalla jamoasi, davr talabi.

**Abstract:** The leadership of our republic attaches great importance to strengthening the family, improving its conditions, and improving people's well-being. The strength of the family allows children to be properly educated in all aspects. Improving communication between family, preschool, school, neighborhood community, increasing parents' responsibility for children's education is the demand of the times.

**Key words:** family, child upbringing, well-being, neighborhood community, demand of the times.

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Buyuk uzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani «mehri anbar» - uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblagan edi.

Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo’lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalariga erishavermaydilar. Hayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, yani uning tarbiyasi bilan shug’ullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Oila jamiyatning boshlang’ich bo’g’ini bo’lib, unda yangi inson vujudga kelad; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi o’qituvchisi va tarbiyachisidirlar. Pedagoglar ota-onalar bilan bo’ladigan suhbatlarda bolaning axloqiy shakllanishi kattalarning o`ziga, ularning namunasiga, o’z shaxslarini takomillashtirishga bo’lgan intilishlariga bog’li q ekanligi odob bilan eslatib qo’yishlari lozim. Pedagog ota-onalar bilan suhbat chog’ida dastur talablariga tayanadi, ota-onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya haqidagi kitob materiallari va ularda keltirilgan misollar, maslahatlar, tavsiyanomalardan ijodiy foydalanadi.

Suhbat bu ikki tomon - pedagog bilan ota-onaning muloqotidir. U fikr almashishga, muhokama qilinayotgan masalalarda o’zaro hamjihatlik o’rnatalishiga yordam berishi kerak. Shuning uchun eng muhimmi, tarbiyachining xayrixohlik, erkinlik muhitini yarata olishidir. Bunga esa pedagog ota-onalarga o’z fikrini bildira olish imkoniyatini yaratib



berganda, o`z fikrini zo`rlab o`tkazmay, ularda olg`a surilayotgan tavsyanomalarga nisbatan ichki rozilikni hosil qilishga manfaatlarni hisobga olib asoslay olgandagina erishadi. Ota-onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan shaxsga ko`rsatadigan ta'sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta'sir etishining asosi ularning bolaga nisbatan beg`araz muhabbat, uning haqida talayuchanlik bilan qo`shib olib boradigan g`amxo`rligidir. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir. Bolalarga qo`yiladigan talablarda birlik bo`lishi umumpedagogik prinsip hisoblanadi, mакtabda ham, oilada ham bu prinsipga amal qilinishi lozim. Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- a) bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni his qilish;
- b) pedagogik bilimlardan xabardor bo`lish;

v) bolaga bo`lgan mehr-muxabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo`shib olib borish. Insonning qanday kishi bo`lib yetishishi ko`p jihatdan javobgardurlar. Shaxsning qadr-qimmati uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baholanadi. Ota-onalar o`z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o`z haqining eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analarini ruhida oliyjanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak. Oilaviy tarbiyaning ko`p muammolari ota-onalarning pedagogik bilimlardan xabarsiz ekanliklari orqali yuzaga keladi. Bunda ota-onalarning ko`pchiligi axloq, huquqshunoslik, ruhiyat va pedagogik bilimlarni bilmaydilar. Bu esa bola tarbiyasida noxush voqealarga sabab bo`lmoqda. Ota-onalarga mo`ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning xulqini va o`zlarining tarbiyaviy ta'sirini tahlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ`ib qilish kerak.

Oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bolalarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabning oila va jamoatchilik bilan aloqalarini yo`lga qo`yish muhim va shartdir. Shuning uchun ham ota-onalar o`rtasida pedagogik-metodik tashviqotlarni olib borish, maktab hayotida ota-onalar ishtirokini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Boladagi ko`p sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, shakllantiriladi. Lekin oilaning o`zi komil insonni tarbiyalay olmaydi. Maktab tarbiyasi oilaviy tarbiyani to`ldiradi va boyitadi. Maktabning ota-onalar bilan aloqalari buzilishi maktab tarbiya jarayoniga ham, oilaning hayot tarziga ham salbiy ta'sir ko`rsatadi. Maktab mahalla qo`mitalari orqali ayrim oilalarga, o`quvchilarga ta'sir ko`rsata oladi. Ayniqsa, Vazirlar mahkamasining 2002 yil 16 maydagi 162-sonli Qarori bilan mahalla pedagog-tarbiyachisi lavozimining tashkil etilishi, bu aloqalarni yanada mustahkamlash va samarali bo`lishiga olib kelmoqda. Mahallaning maktab va ota-onalar bilan hamkorligi yanada kuchaymoqda. Mahalla pedagogi hududdagi yoshlar va voyaga etmaganlar orasida turli huquqbazarliklar va jinoyatlarning oldini olish borasida katta ishlar olib bormoqda. Maktabning ota-onalar bilan hamkorligini mustahkamlash maqsadida maktablarda ota-onalar qo`mitalari tashkil etiladi. Qo`mitaga maktab direktori rahbarlik qiladi. Har bir

sinfda ham ota-onalar qo`mitasi tuziladi. Qo`mitalar o`quv yili boshida butun o`quv yili uchun tuziladi. 2003 yilda Respublikamizda Ota-onalar qo`mitasi haqida yangi Nizom qabul qilinib, tarbiyaviy hamkorlik jarayonining mazmun-mohiyati boyitildi. Sinf ota-onalar qo`mitasi ota-onalar yig`ilishida 3-5 kishidan iborat qilib saylanadi. Sinf ota-onalar qo`mitasi raisi maktab qo`mitasiga a`zo qilinadi. Maktab ota-onalar qo`mitasi a'zolari soni maktab katta -kichikligi, o`quvchilar soni, ish sharoitiga qarab ota-onalar umumiy yig`ilishi qarori bilan belgilanadi. Qo`mita a'zolari mактабning muhim masalalarini hal etishda ko`maklashadi. Maktabning oila va jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish va yaxshilashda sinf rahbarining roli kattadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Хайдарова, Нигина Ганиевна, and Алибек Убайдуллоев. "Мы должны воспитать молодежь достойной наших великих предков, образованными и просвещенными личностями." *Достижения науки и образования* 5 (27) (2018): 44-45.
2. Xaydarova, Nigina Ganiyevna. "IMPORTANCE OF LESSON PLANS IN TEACHING PROCESS." *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar* 1.10 (2022): 68-70.
3. Razokovna O. M. et al. English Learning And Vocabulary Growing Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 10628–10632-10628–10632.
4. Ganiyevna K. N. The peculiarities of making perfect lesson plan //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 5 (27). – С. 45-46.